



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION
TADQIQOTLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI:
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**



**15-16-MAY
2026-YIL**



**Google
Scholar**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR
VA ISTIQBOLLAR**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 15-16-may)*

JIZZAX-2026

NUKLEAR OILADAGI EMOTSIONAL MUNOSABATLARNING BOLA PSIXIK TARAQQIYOTIGA TA'SIRI

Yuldasheva Sojida Zoyirovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Jizzax filiali "Psixologiya" kafedrası assistenti

sojidayuldasheva8384@gmail.com

Bahriddinova Aziza Dilshod qizi

Xolmurodova Nozima Saxobiddin qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada nuklear oiladagi emotsional munosabatlarning bola psixik taraqqiyotiga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Oiladagi hissiy muhit, ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarning bola shaxsining shakllanishi, emotsional barqarorligi hamda ijtimoiylashuv jarayonidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, mahalliy va xorijiy psixolog olimlarning oilaviy munosabatlar haqidagi ilmiy qarashlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Nuklear oila, emotsional munosabat, psixik taraqqiyot, bola psixologiyasi, oilaviy muhit, ijtimoiylashuv, hissiy yaqinlik, tarbiya, ota-ona munosabati.

Bugungi globallashuv va urbanizatsiya jarayonida nuklear oilalar soni ortib bormoqda. Nuklear oila ota-ona va farzandlardan tashkil topgan kichik ijtimoiy birlik bo'lib, undagi emotsional munosabatlar bola rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi mehr, e'tibor, qo'llab-quvvatlash yoki aksincha sovuqqonlik va nizolar bolaning ruhiy holati hamda shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta'sir etadi.

Psixolog olim L.Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishi ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liq ekanligini ta'kidlab, oilani shaxs taraqqiyotining asosiy manbai sifatida baholagan. Uning fikricha, bolaning dastlabki ijtimoiy tajribasi oilada shakllanadi.

Nuklear oiladagi emotsional munosabatlar bolaning hissiy barqarorligi va psixologik xavfsizlik hissining shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Oilada iliq va samimiy muhit mavjud bo'lsa, bola o'zini himoyalangan his qiladi, bu esa uning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Jon Boulbi tomonidan ishlab chiqilgan bog'lanish nazariyasiga ko'ra, bolaning ota-onaga hissiy bog'lanishi uning keyingi ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga asos yaratadi. Olimning ta'kidlashicha, bolalikdagi xavfsiz emotsional bog'lanish kelajakdagi shaxslararo munosabatlarning sifatiga ham ta'sir qiladi. Shuningdek, Meri Eynsvort tadqiqotlarida ona va bola o'rtasidagi hissiy yaqinlik bolaning stressga chidamliligi hamda emotsional moslashuvchanligini rivojlantirishini qayd etgan. Agar oilada doimiy qo'llab-quvvatlash mavjud bo'lsa, bolada ijobiy "Men" konsepsiyasi shakllanadi.

Nuklear oilada ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar ham bola psixikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi nizolar, janjallar yoki agressiv muhit bolada qo'rquv, xavotir, tortinchoqlik va agressiv xulq shakllanishiga olib kelishi mumkin. Albert

Bandura ijtimoiy o'rganish nazariyasida bolalar kattalarning xatti-harakatlarini kuzatish va ularga taqlid qilish orqali xulq me'yorlarini egallashini ta'kidlaydi. Demak, oiladagi salbiy munosabatlar bola xulq-atvorida ham aks etadi.

O'zbek psixologlari ham bu borada ko'plab tadqiqotlar olib borishgan, jumladan V.Karimova oiladagi sog'lom psixologik muhit barkamol shaxs tarbiyasining muhim omili ekanligini ta'kidlaydi. Olimaning fikricha, ota-onaning mehribonligi va farzand bilan samimiy muloqoti bolada ma'naviy barqarorlikni shakllantiradi.

Nuklear oilalarda ayrim hollarda ota-onaning ish bilan bandligi sababli bolaga yetarli emotsional e'tibor berilmasligi mumkin. Bu esa bolada yolg'izlik hissi, emotsional sovuqlik yoki kommunikativ qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, zamonaviy texnologiyalar ta'sirida oilaviy muloqotning kamayishi bola psixik taraqqiyotiga salbiy ta'sir etayotgan omillardan biri sifatida qaralmoqda. Biroq oilada sog'lom emotsional muhit mavjud bo'lsa, bola ijtimoiy jihatdan faol, ruhiy jihatdan barqaror va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida rivojlanadi. Ota-onaning bolani tinglashi, qo'llab-quvvatlashi va hissiy ehtiyojlarini inobatga olishi uning psixik taraqqiyotini ijobiy yo'naltiradi.

Xulosa qilib aytganda, nuklear oiladagi emotsional munosabatlar bolaning psixik taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Oiladagi mehr-muhabbat, o'zaro hurmat va hissiy qo'llab-quvvatlash bolaning emotsional barqarorligi, o'ziga bo'lgan ishonchi hamda ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aksincha, oiladagi nizolar va emotsional sovuqlik bolaning ruhiy rivojlanishiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Shu sababli ota-onalar oilada sog'lom psixologik muhit yaratishi, farzand bilan samimiy muloqot olib borishi va uning hissiy ehtiyojlariga e'tibor qaratishi muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vasila Karimova Oila psixologiyasi Toshkent 2007
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim vazirligi G'.B.Shoumarov, I.O.Haydarov, N.A.Sog'inov "Oila psixologiyasi" "Sharq nashriyoti" Toshkent – 2015
3. "Oilaviy munosabatlar psixologiyasi" S.Yuldasheva. Toshkent. "Zebo print" nashriyoti 2025yil.
4. D.Abdullayeva, R.Yarqulov, N.Atabayeva "Oila psixologiyasi" "Tafakkur Bo'stoni" Toshkent – 2015
5. Oila psixologiyasi: Akad. litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'li. / G.B. Shoumarov, I.O. Haydarov, N.A. Sog'inov va boshq.; G'.B. Shoumarovning tahriri ostidaT.: «Sharq», 2010.
6. Социология семьи: Учебник / Под ред. проф. А.И. Антонова.- М.: ИНФРА-М, 2005 – С. 220

NIKOHGA KIRISH MOTEVATSIYASI. NIKOH MOTIVLARI

Yuldasheva Sojida Zoyirovna

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
"Psixologiya" kafedrasida assistenti*